ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSC. 03/30.12.2019.FIL.19.01. RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

JAMOLIDDINOVA IRODA BAHODIR QIZI

O‘ZBEK TILIDA “QAT’IYAT” KONSEPTINING IFODALANISHI

10.00.01– O‘zbek tili

FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

UO‘K: 811.512.133'1:008

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Contents of Dissertation Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD)
in philological sciences**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по филологическим наукам**

Jamoliddinova Iroda Bahodir qizi

O‘zbek tilida “qat’iyat” konseptining ifodalanishi 3

Jamoliddinova Iroda Bahodir kizi

The expression of the concept “qat’iyat” (“persistence”) in the uzbek language... 23

Жамолиддинова Ирода Баходир кизи
Выражение концепта “qat’iyat” («решительность») в узбекском языке..... 45

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
List of published works
Список опубликованных работ..... 50

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSC. 03/30.12.2019.FIL.19.01. RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

JAMOLIDDINOVA IRODA BAHODIR QIZI

O‘ZBEK TILIDA “QAT’IYAT” KONSEPTINING IFODALANISHI

10.00.01– O‘zbek tili

FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.2.Phd/Fil2373 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, ingliz, rus (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tsuull.uz) va “ZiyoNet” Axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Xakimova Muhayyo Karimovna** filologiya fanlari doktori, dotsent
Rasmiy opponentlar:	**Sobirov Abdulhay Shukurovich** filologiya fanlari doktori, professor
	Mamatov Abdug‘afur Eshonqulovich filologiya fanlari doktori, professor
Yetakchi tashkilot:	**O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti**

Dissertatsiya himoyasi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Fil.19.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil “19” mart soat 12⁰⁰dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100100, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko‘chasi, 103. Tel.: (99871) 281-42-44; faks: (99871) 281-42-44, e-mail: monitoring@navoiy-uni.uz).

Dissertatsiya bilan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (325 raqam bilan ro‘yxatga olingan) (Manzil: 100100, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko‘chasi, 103. Tel: (99871) 281-42-44; faks: (99871) 281-42-44; faks: (99871) 281-12-44 (www.tsuull.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “26” fevral kuni tarqatildi.
(2025-yil “26” fevraldagi 2. raqamli reyestr bayonnomasi)

H.A.Dadaboyev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, filologiya fanlari doktori, professor

O.U.Pardayev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, filologiya fanlari doktori, professor

S.Ashirboyev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori, professor

KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida hozirgi paytda milliy-madaniy mazmunga ega lisoniy birliklarni o‘rganishga lingvokognitiv hamda lingvomadaniy jihatdan yondashish, xalqlarning milliy tafakkur tarzining tilda aks etish jarayonlarini o‘rganish, milliy qadriyatlar asosida shakllangan kommunikativ jarayonlardagi lisoniy ifodaning etnomadaniy xususiyatlarini aniqlash ustuvor vazifalardan hisoblanadi. Tilning xalqlar hayotidagi funksionalligi hamda psixolingvistik, lingvokognitiv, lingvomadaniy va sotsiolingvistik mohiyatiga asosiy e’tibor qaratilayotganligini alohida ta’kidlash joiz.

Dunyo olimlari bu boradagi tadqiqotlarda “konsept” tushunchasi va uning lisoniy ifodasiga alohida e’tibor qaratmoqdalar. Turli tillarda xalqning milliy-mental tafakkur tarzi, olam manzarasiga bo‘lgan milliy nigohi, munosabati muayyan “konsept”larni lingvokognitiv, lingvomadaniy, psixolingvistik nuqtayi nazarlar bilan o‘rganish orqali aniqlanmoqda. Bu boradagi tadqiqotlarning farqli natijalari olamning konseptual va lisoniy manzaralari milliy idrok intizomi bilan shartlanganini namoyon qiladi. Shu nuqtayi nazardan har bir tilda milliy-mental asosga ega bo‘lgan tushunchalarni konseptual tadqiq qilish dolzarb masalalardandir.

Mamlakatimizda so‘nggi yillarda olib borilayotgan odilona til siyosatining natijasida tilshunoslik sohasidagi tadqiqotlar uchun keng imkoniyatlar yaratildi. “O‘zbek tilining o‘ziga xos xususiyatlari, shevalari, tarixiy taraqqiyoti, uning istiqboli bilan bog‘liq ilmiy tadqiqotlar samarasini oshirish, kadrlar tayyorlash sifatini tubdan yaxshilashga erishmog‘imiz zarur”[1]. O‘zbek tilida olam manzarasining o‘ziga xos milliy qiyofada aks etishi, tildagi “qat’iyat” konseptiga muhrlangan milliy tafakkur, milliy madaniyatning aniqroq ochilishi mumkinligi tadqiqot mavzusining dolzarb ekanligini belgilaydi. O‘zbek tilshunosligida “qat’iyat” konseptining monografik planda tadqiq etilmaganligi mazkur mavzuni o‘rganish zarurati borligini ko‘rsatadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son “Mamlakatimizda o‘zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlari, Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 3-martdagi 117-son “Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori va mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining o‘ttiz yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimda so‘zlagan nutqi // Xalq so‘zi, 2019-yil, 22-oktabr.

shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Tadqiqotning davlat dasturlari yoki ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya Alisher Navoiy nomidagi O‘zbek tili va adabiyoti universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “O‘zbek tilshunosligining nazariy va amaliy masalalari” mavzusi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Muayyan tildagi konseptlar tahlili bo‘yicha jahon va o‘zbek tilshunosligida bir qator tadqiqotlar amalga oshirilgan. Bu tadqiqotlar kognitiv, lingvomadaniy va psixolingvistik yo‘nalishlarda bajarilgan.

Konseptning lingvokognitiv jihatlari xususida S.Askoldov, E.Kubryakova, N.Shvedova, V.Teliya, Z.Popova, I.Sternin, N.Alifirenko, V.Krasnix, A.Babushkin kabi tilshunoslar tadqiqotlar olib borgan[2]. A.Zalevskaya konseptni psixolingvistik hodisa sifatida talqin qiladi[3]. Lingvomadaniy talqinlari esa V.Maslova, V.Karasik, G.Slishkin, S.Vorkachevlarning tadqiqotlarida ochib berilgan[4].

O‘zbek tilshunosligida konseptual tadqiqotlar asosan chog‘ishtirma aspektda bajarilmoqda. Xususan, R.Ibragimovaning “Fransuz va o‘zbek tillarida ayol konseptining lingvokognitiv tadqiqi”, M.Rahmatovaning “Ingliz, o‘zbek va tojik milliy madaniyatida “go‘zallik” konseptining lisoniy xususiyatlari”, A.Xalillayevning “Ispan va o‘zbek tillarida “hombría” / “mardlik” konsepti qo‘llanishining lingvokognitiv va lingvomadaniy xususiyatlari”, T.Yandashevaning “O‘zbek va ingliz tillarida “go‘zallik” konseptining ifodalanishi va lingvopoetikasi”, A.Bazarbayevaning “Ingliz, o‘zbek, rus tillarida rang ifodalanishining kognitiv-semantik tuzilishi” tadqiqotlari shular jumlasidandir[5].

---

[2]Аскольдов С.А. Концепт и слово // Русская словесность. От теории словесности к структуре текста: Антология. Под ред В.П. Нерознака. – М.: Academiya, 1997.– 317 с.; Кубрякова и др. Краткий словарь когнитивных терминов. Под ред. Е.С. Кубряковой. – М.: Филол. фак. МГУ, 1996. – 245 с.; Шведова Н.Ю. Русский язык: Избранные работы. – М.: Яз. славян. культуры, 2005. – 639 с.; Телия В.Н. Русская фразеология. Семантический, прагматический и лингвокультурный аспекты. – М.: Языки рус. Культуры, 1996. – 284 с.; Попова З.Д., Стернин И.А. Семантико-когнитивный анализ языка. – Воронеж: Истоки, 2007. – 250 с.; Алефиренко Н.Ф. Поэтическая энергия слова. Синергетика языка, сознания и культуры. – М.: Academia, 2002. – 391 с.; Красных В.В. Этнопсихолингвистика и лингвокультурология. – М.: Гнозис, 2002. – 391 с.; Бабушкин А.П. Типы концептов в лексико-фразеологической семантике языка. – Воронеж: Изд-во Воронеж. гос. ун-та, 1996. – 103 с.

[3] Залевская А.А. Психолингвистические исследования. Слово. Текст. – М.: Гнозис, 2005. – 542 с.

[4] Маслова В.А. Лингвокультурология. – М.: Academia, 2004. – 202 с.; Карасик В.И. Языковой круг: личность, концепт, дискурс. – М.: Гнозис, 2004. – 389 с.; Слышкин Г.Г. Лингвокультурные концепты и метаконцепты. – Волгоград: Перемена, 2004. – 339 с.; Воркачев С.Г. Лингвокультурный концепт: типология и области бытования. – Волгоград: Изд-во Волгоградского гос. ун-та, 2007. – 399 с.

[5] Ибрагимова Р.С. Француз ва ўзбек тилларида аёл концептининг лингвокогнитив тадқиқи: Филол. фан. номз. дисс. автореф. – Тошкент, 2012. – 31 б.; Раҳматова М.М. Инглиз, ўзбек ва тожик миллий маданиятида “гўзаллик” концептининг лисоний хусусиятлари. Филол. фан. б. фалс. док. (PhD) дисс. автореф. – Бухоро, 2019. – 51 б.; Халиллаев А.К. Испан ва ўзбек тилларида “hombría” / “мардлик” концепти қўлланишининг лингвокогнитив ва лингвомаданий хусусиятлари. Филол. фан. б. фалс. док. (PhD) дисс. автореф. – Тошкент, 2021. – 51 б.; Яндашева Т. Ўзбек ва инглиз тилларида “гўзаллик” концептининг ифодаланиши ва лингвопоэтикаси. Филол. фан. б. фалс. док. (PhD) дисс. автореф. – Тошкент, 2021. – 53 б.; Базарбаева А.М. Инглиз, ўзбек, рус тилларида ранг ифодаланишининг когнитив-семантик тузилиши: Филол. фан. б. фалс. док. (PhD) дисс. автореф. – Тошкент, 2020. – 57 б.

So‘nggi yillarda o‘zbek tilshunosligida madaniy konseptlarning aksiolingvistik talqinlariga oid tadqiqotlar ham ko‘payib bormoqda[6].

Tadqiqotning maqsadi o‘zbek tilida “qat’iyat” konseptining lisoniy ifodalanishi va nutqiy voqelanishini ochib berishdan iboratdir.

Tadqiqotning vazifalari:

“qat’iyat” konseptining shakllanishi va konseptosferadagi o‘rnini o‘rganish, kognitiv strukturasini oydinlashtirish;

“qat’iyat” konseptini ifodalovchi leksemalarni ajratish, ma’noni ifodalash darajalarini aniqlash, o‘zaro hamkorligini ochib berish;

“qat’iyat” konseptini frazemalar, maqollar, o‘xshatishlar orqali ifodalanishini aniqlash, shu orqali milliy-mental xususiyatlarini dalillash;

“qat’iyat” konseptining rasmiy va badiiy uslublarda o‘ziga xos ifodalanishlarini, vosita va usullarini aniqlash.

Tadqiqot obyekti sifatida “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”, “O‘zbek tili o‘xshatishlarining izohli lug‘ati”, “O‘zbek tili frazemalarining izohli lug‘ati”, “O‘zbek xalq maqollari” to‘plamida qayd qilingan qat’iyat semantikali lisoniy va nutqiy birliklar tanlab olingan.

Tadqiqotning predmetini o‘zbek tilidagi “qat’iyat” konseptining lisoniy va nutqiy birliklarda voqelanuvchi semantik, lingvokognitiv va lingvomadaniy xususiyatlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot mavzusini yoritishda tizimli tahlil, tavsiflash, qiyoslash, komponent tahlil, konseptual tahlil, modellashtirish, assotsiativ tajriba, lingvomadaniy va kognitiv tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

“qat’iyat” konseptining o‘zbek tafakkuri va madaniyati bilan bog‘liq holda shakllanishi o‘rganilgan hamda uning konseptosferadagi o‘rni aniqlanib, mazkur konseptning kognitiv strukturasi so‘rovnomaga asoslangan tajriba natijalari asosida ochib berilgan;

“qat’iyat” konseptini ifodalovchi leksemalar aniqlangan, ma’noni ifodalash darajalari belgilangan, qat’iyatning signifikativ yoki konnotativ ifodalari dalillanib, mazkur semantikani berishdagi til birliklarining o‘zaro hamkorligi isbotlangan;

“qat’iyat” konseptining frazemalar, maqollar, o‘xshatishlar orqali ifodalanishi dalillanib, shu orqali o‘zbek xalqi milliy xarakterining tilda voqelanishining o‘ziga xosliklari ochiqlangan, olam lisoniy manzarasida xalqning madaniyati, milliy tafakkuri bilan birga milliy xarakteri ham namoyon bo‘lishi aniqlangan;

“qat’iyat” konseptining rasmiy, badiiy uslublarda o‘ziga xos ifodalanishlari isbotlangan hamda uslubiy vosita va usullari aniqlanib, nutq maqsadiga ta’siri asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

“qat’iyat” konseptining lisoniy ifodalanishi va nutqiy voqelanishini o‘rganish natijasida olingan xulosalar lisoniy shaxs portretini yaratishda, qat’iyatli va qat’iyatsiz kishilar nutqining ekspertizasida amaliy yordam beradi;

6. Uzakova X. “Sadoqat” konseptining aksiolingvistik tadqiqi. Filol. fan. b. fals. dok. (PhD) diss. avtoref. – Toshkent, 2024. – 51 b.

psixologik tahlillarda, jumladan, temperament turlarini nutq orqali aniqlashda “qat’iyat” omillarini belgilovchi amaliy manba vazifasini o‘tashi dalillangan;

tadqiqot natijalaridan oliy o‘quv yurtlari filologiya fakultetlarida “Linvomadaniyatshunoslik”, “Kognitiv tilshunoslik” bo‘yicha maxsus kurs va seminarlarni tashkil etishda, ushbu fanlar bo‘yicha darslik, o‘quv qo‘llanmalarni yaratishda amaliy jihatdan foydalanish mumkin;

konseptning strukturasini aniqlash bo‘yicha aniq tahlillar amalga oshirilgan va bu tahlil usullari kelgusidagi shunday ilmiy tadqiqotlar uchun metodik ko‘rsatma bo‘lishi isbotlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ishda tilshunoslikda e’tirof etilgan metodlardan va zamonaviy tilshunoslikning ko‘rsatmalaridan foydalanilganligi, ma’lumotlarni berishda aniq ilmiy manbalarga tayanilganligi, xulosalarning zamonaviy lingvistik tahlil metodlari orqali asoslanganligi, nazariy qarashlarning amaliyotga joriy etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natajalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, o‘zbek tilshunosligining semantika va lingvomadaniyatshunoslik sohalarini konseptga oid yangi ilmiy-nazariy xulosalar bilan boyitishi mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati konseptga oid masalalarni tadqiq qilishda zaruriy material bo‘la olishi; oliy ta’lim tizimidagi “Lingvomadaniyatshunoslik”, “Etnolingvistika” fanlaridan darslik va o‘quv qo‘llanmalar yaratishda manba bo‘lib xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O‘zbek tilida “qat’iyat” konseptining ifodalanishi tadqiqi yuzasidan olingan ilmiy natijalar asosida:

vatan, xalq, oilani asrashdagi; yaxshilik, taraqqiyot yo‘lidagi qat’iyat aks etgan leksik birliklar, frazema, o‘xshatish, maqollar tahlillariga oid ilmiy xulosalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2019–2022-yillarda bajarilgan PZ–2020042022 raqamli “Turkiy tillarning lingvodidaktik elektron platformasini yaratish” mavzusidagi amaliy loyihada foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2024-yil 28-avgustdagi 01/6-2257-son ma’lumotnomasi). Natijada elektron platformaning til ta’limiga madaniy xususiyatlarni singdirish maqsadiga xizmat qiluvchi ma’lumotlar bazasi boyitilgan;

“qat’iyat” konseptini ifodalovchi birliklarning savdo, ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish obyekti nomlari sifatida qo‘llanilishining lingvomadaniy, pragmatik va gender xususiyatlari haqidagi ilmiy-nazariy xulosalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi Davlat tilida ish yuritish asoslarini o‘qitish va malaka oshirish markazida 2022–2023-yilda bajarilgan II-4721101717-raqamli “Xizmat ko‘rsatish obyektlari milliy nomlari interaktiv elektron platformasini yaratish” mavzusidagi amaliy loyihada foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi Davlat tilida ish yuritish asoslarini o‘qitish va malaka oshirish markazining 2024-yil 28-iyuldagi 1273-son ma’lumotnomasi). Natijada loyihada yaratilgan elektron platforma “qat’iyat” semantikali *iroda, sabot, jur’at, ahd, mard, jasorat* komponentli nomlar bilan boyitilgan;

“qat’iyat” konseptining maqollar semantikasi, badiiy va rasmiy uslubdagi matnlardagi nutqiy voqelanishi haqidagi xulosalardan, shuningdek, tadqiqotda ilgari surilgan “qat’iyat” konseptida milliy-mental xususiyatlarning aks etishi haqidagi ilmiy-nazariy xulosalardan “O‘zbekiston” telekanalining “Assalom O‘zbekiston” dasturi ssenariysini yozishda foydalanilgan (O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston” telekanali DUKning 2024-yil 29-oktabrdagi 06-28 / 944-sonli ma’lumotnomasi). Natijada o‘zbek xalqining milliy-mental xususiyatlarining “qat’iyat” konsepti orqali namoyon bo‘lishiga oid materiallar ko‘rsatuv ilmiy saviyasi oshishiga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 8 ta ilmiy-nazariy anjumanda, jumladan, 5 ta xalqaro va 3 ta respublika anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi. Dissertatsiya natijalari bo‘yicha jami 14 ta ish, shundan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, jumladan, 4 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnalda nashr qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovadan iborat. Tadqiqotning hajmi 123 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Tadqiqotning kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, dissertatsiyaning maqsadi, vazifalari, tadqiqot obyekti, predmeti, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy ahamiyati yoritilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar haqida ma’lumot berilgan.

Dissertatsiyaning I bobi **“O‘zbek tilida “qat’iyat” konsepti va uning kognitiv belgilari”** deb nomlanib, 1.1. paragrafda *“Antroposentrik tilshunoslikda konsept masalasi”* tadqiq qilingan. Inson omiliga asoslangan antroposentrik tilshunoslikning asosiy tushunchalaridan biri konseptdir. Konsept kognitiv tilshunoslik hamda lingvomadaniyatshunoslikning tayanch tushunchasi sanaladi. Konsept terminini birinchi marta S.Askoldov 1928-yilda qo‘llagan bo‘lib, uning fikricha, konseptlar vositasida turli millat vakillari muloqotga kirishadi, shunga ko‘ra konseptlarni yaratish va qabul qilish ikki tomonlama kommunikativ jarayon hisoblanadi[7].

XX asrning 80-yillarida konsept tushunchasi ongimizda aks etadigan jarayonlarni ifodalovchi birlik, ya’ni “tushuncha” so‘ziga sinonim sifatida qo‘llangan. Ayni paytda konsept termini tushuncha ifodalaydigan mazmundan ancha keng holda qo‘llanmoqda. Jahon tilshunosligida konseptga oid tadqiqotlarning dastlabkisi sifatida S.A.Askoldovning “Konsept va so‘z”

[7] Аскольдов С.А. Концепт и слово // Русская словесность. От теории словесности к структуре текста: Антология. Под ред. В.П. Нерознака. – М.: Academiya, 1997. – 317 с.

maqolasi e’tirof etiladi[8]. Rus tilshunosi Y.Y.Proxorov “Konseptni izlab” («В поисках концепта») nomli monografiyasida konseptga bo‘lgan yondashuvlarda quyidagilarni alohida ajratadi: lingvokognitiv hodisa (Kubryakova, 1996); psixolingvistik hodisa (Zalevskaya, 2001); abstrakt ilmiy tushuncha (Solomonik, 1995); madaniyatning bazaviy tushunchasi (Stepanov, 1997); lingvomadaniy hodisa (Karasik, 2001)[9].

Kognitiv tilshunoslikda konsept insonning bilimi va tajribasini, mental leksikasini, butun olam manzarasini, olamning konseptual manzarasini, miyaning konseptual va til tizimini, insonning ruhiyatini ifodalovchi vosita sifatida o‘rganiladi. Y.S.Kubryakova konseptni “mental tuzilma va turli tarkibdagi, ko‘rinishdagi bilimlar jamlanmasi yoki umumlashmasi” ekanini ta’kidlaydi[10]. S.G.Vorkachev “Konsept – tilda o‘z ifodasi va lingvomadaniy xususiyatga ega tushuncha, tasavvur va bilimlar to‘plamidir” degan fikrni ilgari suradi[11].

Konseptning lingvomadaniy jihati xususida N.Mahmudov “Tilning mukammal tadqiqi yo‘llarini izlab…” nomli maqolasida V.A.Maslova tomonidan ilgari surilgan ta’rif haqiqatni aniqroq aks ettiradi, deya e’tirof etgan. Uningcha, konsept “lingvomadaniy o‘ziga xoslik qayd etilgan va muayyan etnomadaniyat egalarini u yoki bu tarzda tavsiflovchi semantik tuzilmadir[12]. O‘.K.Yusupov esa quyidagi fikrni keltiradi: “Konsept – bu ongimizdagi bilimlar majmuasi, u haqidagi obrazlar va unga bo‘lgan ijobiy, salbiy, neytral munosabatlar, ya’ni baholashlar”[13]. Lingvokulturologik konsept etnomadaniy xususiyatga ega bo‘lgan va borliq haqidagi ahamiyatga ega ma’lumotlarni uzatadigan madaniyatning asosiy birligidir. Bu sohada konsept xalqning madaniyati ko‘rsatkichi sifatida talqin qilinadi. Masalan, o‘zbek tilidagi “qat’iyat” konseptida o‘zbek er kishisining vatanparvarligi, oilaparvarligi; “vafo” konseptida esa o‘zbek ayolining ibo-hayosi aks etadi.

1.2. paragraf *“O‘zbek tilida “qat’iyat” konseptining shakllanishi va konseptosferadagi o‘rni”* deb nomlanadi**.** *Qat’iyat* so‘zi o‘zbek tiliga arab tilidan o‘zlashgan bo‘lib, bugungi kunga kelib mazkur so‘z tilimizga shu qadar singib ketganki, u xalqning xarakterini, stereotiplarini o‘zida aks ettiruvchi qadriyat darajasidagi konsept nomiga aylangan. O‘zbek tilida *qat’iyat* so‘zi o‘zining ma’no taraqqiyotiga ega; sinonimik, darajali qatorlari, antonimik jufti mavjud; turli lisoniy va nutqiy ziddiyatlarga kirisha olish imkoniyati, so‘z yasalish tizimiga ega bo‘lgan lisoniy sistemada mustahkam o‘rnashgan leksik

[8] Аскольдов С.А. Ko‘rsatilgan asar. – С. 47.

[9] Прохоров Ю.Е. В поисках концепта. – М.: Флинта, Наука, 2008. – С. 20.

[10] Кубрякова Е.С. О когнитивной лингвистике и семантике термина “когнитивный” // Вестник Воронежского государственного университета Серия: Лингвистика и межкультурная коммуникация. – Воронеж, 2001.– С. 4–10.

[11] Воркачев С.Г. Лингвоконцептология и межкультурная коммуникация: истоки и цели // Филологические науки, 2005. – № 4. – С. 14–15.

[12] Bu haqida qarang. Маҳмудов Н. Тилнинг мукаммал тадқиқи йўлларини излаб // Ўзбек тили ва адабиёти, 2012. – № 5. – Б. 3–16.

[13] Юсупов Ў.Қ. Маъно, тушунча, концепт ва лингвокультурема атамалари хусусида / Стилистика тилшуносликнинг замонавий йўналишларида: Илмий амалий конференция материаллари. – Тошкент, 2011. – Б. 49.

birlikdir. Qat’iyat lug‘aviy birliklar orqali leksik va frazeologik; sintaktik sathda esa modal ma’noga aylana oladigan tushunchadir.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, “qat’iyat” konsepti faqatgina *qat’iyat* so‘ziga bog‘liq emas. Bu konseptning reallashuvida o‘zbek tilining juda ko‘p birliklari “xizmat qiladi”. O‘zbek tilida “qat’iyat” konsepti leksik, frazeologik, grammatik, paremeologik birliklar, metafora va unga asoslangan o‘xshatishlar, poetik figuralar orqali ifodalanadi. Bu lisoniy va nutqiy vositalarning o‘zaro hamkorligi, biri ikkinchisini to‘ldirishida kuzatiladi. Bunday vositalarning ayrimlari qat’iyat tushunchasini yorqinroq, ayrimlari kuchsizroq ifodalaydi.

O‘zbek xalqida “qat’iyat” konseptining shakllanishiga qadim madaniyat o‘chog‘i sanalgan yurtimizning uzoq zamonlardan beri qancha-qancha bosqinlarga bardosh bergani; vatan, yurt, makon va oila uchun er kishilarning qat’iyat bilan kurashlari, matonati va ayollarning oilasiga sadoqati sabab bo‘lgan. Mana shunday tarixiy jarayonlar o‘zbek xalqida o‘z so‘zida, fikrida, va’dasida o‘zgarmasdan qat’iy va qattiq turish holatini, fazilatini shakllantirgan, tarbiyalagan, qadriyat sifatida baholanishiga zamin yaratgan. Milliy tushuncha va bahoga ega mazkur konsept tilda o‘z ifodalanishlariga ega.

O‘zbek tilida qat’iyat qaysarlik va qat’iyatsizlik tushunchalari bilan ham ziddiyatga qo‘yiladi. Ya’ni, xalqimiz qat’iyatlilik va qat’iyatsizlikni aksiologik juftlik, qadriyat va aksqadriyat sifatida baholaydi. Bu baho munosabatini ko‘plab maqollar va badiiy matnlardagi qarshilantirishlar orqali kuzatishimiz mumkin: *Va’daga vafo — mardning ishi, Va’dasiz — subutsiz kishi*.

Olamning lisoniy manzarasi turli konseptlardan iborat bo‘ladi. Muayyan tildagi konseptlar yig‘indisi esa konseptosferani tashkil etib, u esa milliy mentalitetni o‘zida aks ettiradi. Ma’lum bir tillarning konseptosferalari o‘xshash bo‘lsa-da, milliy mentalitetning o‘ziga xosligi nuqtayi nazaridan muayyan farqliklar kuzatiladi. O‘zbek tili konseptosferasida “qat’iyat” konseptining ham o‘z o‘rni bo‘lib, u boshqa konseptlar bilan o‘zaro munosabatda bo‘ladi. Uning “barqarorlik”, “mardlik”, “ishonch”, “erkak”, “sadoqat”, “vafo”, “sabr, “maqsad”, “shijoat” konseptlari bilan kesishgan o‘rinlari mavjud. Muayyan bir til birligi u yoki bu konseptni ifodalashi ham mumkin. Masalan, *matonat* leksemasi bir vaqtning o‘zida ham “qat’iyat”, ham “sabr”, ham “sadoqat” konseptlarini ifodalaydi.

1.3. paragraf *“Qat’iyat”ning kognitiv belgilari”* deb nomlanadi. Tilshunoslikda konseptlarning ma’lum bir strukturaga egaligi haqida nazariy qarashlar mavjud. Y.Stepanov konseptni “qatlamli tuzilma” sifatida tasvirlaydi. U konseptda quyidagi belgilarni ajratadi: asosiy (aktual, muhim) belgi; 2) qo‘shimcha (passiv, tarixiy) belgi; 3) ichki shakl (etimologik belgi)[14].

“Qat’iyat” konseptini tashkil etuvchi belgilarni ajratishda aniq manbaga asoslanish lozim. O‘zbek tilida bir-biriga muqobil izohli lug‘atlarning mavjud emasligi, o‘rganilayotgan konseptning abstrakt ma’no kasb etishi tadqiqotchining obyektiv fikrlashiga to‘sqinlik qilishi mumkin. Chunki abstrakt

[14] Степанов Ю. Константы: Словарь русской культуры. – М.: Акад. проект, 2001. – С 45.

ma’noda aniq ko‘rinib turgan denotativ belgilar mavjud bo‘lmaydi. Tadqiqotda “qat’iyat” konseptining kognitiv belgilarini ajratish uchun tajribadan foydalanildi. Tajriba so‘rovnoma tarzida bo‘lib, onlayn o‘tkazildi. Unga 18 yoshdan katta turli kasb va ijtimoiy guruh a’zolari jalb qilindi.

So‘rovnoma orqali quyidagilarni aniqlash maqsad qilib qo‘yildi:

1. “Qat’iyat” konseptining belgilarini aniqlash.
2. “Qat’iyat” konseptining obrazli tasvirini aniqlash.
3. “Qat’iyat” konseptining ma’noviy tebranish kengligini belgilash.
4. Qat’iyatning ramziy belgilari, pretsident birliklarini aniqlash.

I. So‘rovnoma orqali qat’iyatning belgilari aniqlandi. Kognitiv belgilarning tartiblangan ko‘rinishi:

1. Asosiy kognitiv belgilar. Asosiy kognitiv belgilarga birdan ortiq reaksiya bildirilgan so‘zlar kiritildi: *o‘zgarmaslik (21), barqarorlik (17), iroda (14), matonat (13), birso‘zlilik (13), chidamlilik (11), va’daga vafo (11), kerakli o‘rinda qo‘rqmasdan gapira olish (10), mustahkam iroda (9), oxirigacha borish (8), subut (8), bardosh (7), fikridan qaytmaslik (7), ahd (6), vafo qilish (6), dadillik (6), toqat (5), sadoqat (5), o‘ziga ishonch (5), natijaga ishonch (4), shahd (4), qaysarlik (4), jasorat (3), keskinlik (3), oxirigacha kurashish (3), maqsadga erishmaguncha qo‘ymaslik (3), ikkilanishning yo‘qligi (2), sobitlik (2), lafzida turish (2).*

2. Muhim bo‘lmagan passiv kognitiv belgilar. Bu kognitiv belgilarni shaxsiy kognitiv belgilar deb ham atash mumkin. Chunki so‘rovnomada qatnashganlar o‘z shaxsiy assotsiatsiyalaridan kelib chiqib fikr bergan. Ular quyidagilardir: *chapdastlik (1), shiddat (1), mas’uliyatlilik (1), tushunish (1), izlanuvchi (1), haqiqatgo‘y (1), namunali (1), qiyinchilik (1), tajriba (1), intilish (1), insof (1), o‘zim (1), ko‘zlarining o‘zgachaligi (1), fikrlarini boshqalar tomonidan ijobiy qabul qilinishi (1), adolatli bo‘lish (1), uddaburonlik (1), kurashish (1), liderlik (1), intuitsiya (1).*

Noto‘g‘ri ajratilgan belgi: *hamdard (1).*

II. So‘rovnomaning 2-savoli orqali “qat’iyat” konseptining obrazli belgilari aniqlandi: *tog‘, burgut, yo‘lbars, jilg‘a, o‘q, nuqta, qo‘lida qilich tutgan jangchi, ajriq o‘simligi, qal’a, karvon, dengiz.*

“Qat’iyat” konseptining obrazli kognitiv belgilari kutilmagan, ya’ni o‘xshatishlar lug‘atida uchramagan, badiiy adabiyotlarda metaforik qo‘llashlarda kam ishlatilgan belgilar ekanligi bilan e’tiborlidir. Demak, xalqimizning obrazli tasavvurlari juda keng bo‘lib, bu kabi tajriba natijalari badiiy talqinlar uchun namuna manbasi bo‘la oladi.

III. “Sizningcha, qat’iyat nima?” degan savolning javoblari orqali *qat’iyat* leksemasining ma’noviy chegaralari aniqlandi. Shu orqali o‘zbek tili egalarining “qat’iyat” konsepti xususidagi tushunchaviy ma’lumotlar bazasi haqida ma’lum bir fikrga kelish mumkin.

1-jadval.

“Qat’iyat” semantikasining konseptual maydoni

Konseptual maydon	**Konseptual talqinlar**
So‘zini o‘zgartirmaslik	*so‘zidan qaytmaslik, birso‘zlilik, qat’iy turib aytilgan gap.*
Fikrini o‘zgartirmaslik	*o‘z fikrida qattiq turish, o‘z qarorida tura olish, o‘z fikrida qat’iy turish, o‘z fikriga ega bo‘lish va uni o‘zgartirmaslik, vaziyatga faqat o‘zining munosabatini bildira olish, qiyin vaziyatlarda o‘z fikrini o‘zgartirmasdan qolish, o‘z fikriga ega bo‘lish.*
O‘z pozitsiyasiga egaligi	*o‘z pozitsiyasida mahkam turish, o‘zining shaxsiy fikrini hurmat qilish.*
Matonatli	*matonat, irodali inson, insonning biror ishini bajarishga sobitligi, sobitlik.*
Maqsadga erishish	*ko‘zlagan maqsadiga yetishish, o‘z oldiga qo‘ygan maqsadi sari shaxdam va aniq harakat qilish.*
Ishonch	*O‘ziga ishonch, jur’atlilik*

IV. So‘rovnomaning 4-savoliga berilgan javoblar orqali o‘zbek xalqi orasida qat’iyatli deb tan olingan shaxslar aniqlandi. Ular quyidagilardir: *To‘maris, Barchinoy, Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi, Alpomish, To‘maris, Farhod, Klyapatra, Shiroq, Mariya Kyuri.*

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi “**O‘zbek tilida “qat’iyat” konseptining lug‘aviy birliklar orqali ifodalanishi”** deb nomlanib, bob uch paragrafdan iborat. 1.1. paragraf *“Qat’iyat” konseptining leksik ifodalanishi”* deb ataladi. O‘zbek tilida “qat’iyat” konsepti lug‘aviy birliklar orqali aniq namoyon bo‘ladi. Qat’iyat ma’nosi o‘zbek tilida ot (ahd, intizom, matonat), sifat (barqaror, jur’atli), fe’l (ahdlashmoq, qat’iylashmoq), ravish (qat’iyan) turkumlaridagi leksemalar semantikasida mavjud. Son so‘z turkumi sof miqdorni ifodalagani uchun uning tarkibida qat’iyat ma’noli sonlar bo‘lishi mumkin emas. Olmosh so‘z turkumida ham uchramaydi.

Tilimizda “qat’iyat” semantikasiga ega substantiv (predmetni nomlovchi) leksemalarni uch guruhga ajratib o‘rganish mumkin:

1) semantik strukturada “qat’iyat” semema maqomidagi leksemalar;

2) semantik strukturada “qat’iyat” semasi yetakchi bo‘lgan leksemalar;

3) semantik strukturada “qat’iyat” semasi quyiroq pozitsiyada bo‘lgan leksemalar.

Qat’iyat va *qat’iylik* leksemalarining semantik strukturasida “qat’iyat” semema maqomidadir. *Qat’iyat* so‘zi ko‘p ma’noli bo‘lib, o‘zbek tilining izohli lug‘atida ikkita ma’nosi qayd qilingan.

Qat’iyat 1. Sememasi: O‘z fikrida, so‘zida, azm-u qarorida qattiq turish. Semalari: insonga xos xarakter; qattiq turish; so‘zini o‘zgartirmaslik; ahdini

o‘zgartirmaslik; fikrini o‘zgartirmaslik; qadriyat. Ushbu semalar oshkor semalar bo‘lib, semantik strukturada yetakchi pozitsiyadadir.

Lekin semantik strukturada potensial semalar ham mavjud bo‘lib, ular muayyan kontekstlarda reallashadi. Masalan, “qattiq” semasi orqali o‘z fikrini, ahdini, qarorini qiyinchilik bilan bo‘lsa ham o‘zgartirmaslik, “qiyinchiliklarga bardosh berish”, “sabr qilish” kabi qo‘shimcha ma’no komponentlari borligini sezish mumkin. Tilimizda “qattiq” semantikasi juda serqirra bo‘lib, olamning lisoniy manzarasida o‘ziga xos o‘ringa ega. Mazkur holatda “qattiqlik” o‘zgarmaslik, tashqi ta’sirlarga, qiyinchiliklarga “egilib” ketmaslikni ifodalaydi. Xuddi “oyog‘ini tirab turmoq” frazemasidagi obrazli ma’no kabi “har qanday holatda ham o‘zligini qattiq turib o‘zgartirmasdan, o‘zgarmasdan saqlash” semantikasini beradi: *U o‘z fikrini qat’iyat bilan himoya qildi va hech kim uni o‘zgartira olmadi*. Xalqimizning qat’iyatni qattiqlik bilan bog‘laganini quyida metafora, o‘xshatish va frazemalarda ham kuzatamiz. Shu o‘rinda qat’iyatni ifodalovchi *qat’iyat, qattiq, qaysar, qasd, qasam* kabi so‘zlarning fonosemantikasi e’tiborni tortadi. To‘g‘ri, bu so‘zlarning kelib chiqishi turli genetik tarkibga oid, etimologiyasi tamoman boshqacha. Lekin tilimizda yashar ekan, ma’lum tovushlar ketma-ketligi muayyan ma’nolar uchun ixtisoslashib qolishi mumkin degan fikrga keldik. Zero, chuqur til orqa undoshi q tovushidan keyin kelgan unlilar qattiq, yo‘g‘on talaffuz qilinadi. Bunday talaffuz esa “qat’iyat” semantikasining nominatsiyasiga ta’sir qilgan bo‘lishi mumkin.

“Qat’iyat” leksemasining semantik strukturasida “qadriyat” semasi ham mavjuddir. Zero, muayyan bir leksema tilda konsept darajasida mavjud ekan, unga xalqning bahosi berilgan bo‘ladi.

Semantik strukturada “qat’iyat” semasi yetakchi bo‘lgan leksemalarga *matonat, sabot, qasd, ahd, azm, qasam, qasamyod, ont, subut, tuturiq, lafz, burd, vafo* leksemalari kiritildi va ularning mazkur ma’noni ifodalash darajasi semantik tahlil qilindi. Masalan, *matonat* leksemasining ma’nosi “qat’iyat” bilan birgalikda “chidam” semasining birikuvidan hosil bo‘lgan. *Zivmat Husanovning qilgan janglari, matonati, jasorati kishilarga ibratli edi* (N.Safarov, Olovli izlar). *Sabot* leksemasining semantik tarkibida “mashaqqatlarga qat’iylik” bilan “sabr” semalari bor. *Lekin qutulmoq yo‘q hijron dastidan, Faqat qalbimizda bardosh va sabot (*A.Oripov).

Semantik strukturada “qat’iyat” semasi quyiroq pozitsiyada bo‘lgan leksemalarga *qaror, farmon, taqazo, fakt, ultimatum* kabi so‘zlarni kiritish mumkin. Har bir leksema ma’noviy tahlilga tortildi. Masalan, *ultimatum* fransuzcha so‘z bo‘lib, huquqiy jihatdan, muayyan masalada bir davlat hukumatining boshqa davlat hukumatiga yozma yoki og‘zaki bayon qilingan, hech qanday bahs yoki e’tirozga o‘rin qoldirmaydigan qat’iy talabi.

“Qat’iyat” ma’nosi belgi bildiruvchi so‘zlar semantikasida ham namoyon bo‘ladi. O‘zbek tilida sifat turkumi doirasida quyidagi so‘zlar qat’iyatni ifodalashga xizmat qiladi: *birso‘zli, barqaror, dasturiy, radikal, sabotli, shaddod, qat’iy, qat’iyatli, talabchan, keskin, vafodor, irodali.* Dissertatsiya matnida bu leksemalarning semantikasi alohida o‘rganildi, aksariyati

konnotatsiyadan xoli ekanligi; *qaysar va shaddod* leksemalarida esa konnotativ ma’no mavjudligi qayd etildi, mazkur leksemalarning “qat’iyat” ma’nosining ifodalash darajasiga ko‘ra mazmuniy maydondagi o‘rinlari aniqlandi. Masalan, *dasturiy* leksemasi qat’iy reja asosida muayyan maqsadga qaratilgan xatti-harakat ma’nosini anglatadi. Maqsadlashgan xatti-harakatni amalga oshirishda tartibsizlikka yo‘l qo‘yilmaydi, aniq, ketma-ketlikda bajariladigan, ya’ni, “qat’iy harakat” semasini ko‘rishimiz mumkin. Bu semema to‘g‘ridan to‘g‘ri “qat’iy” belgini ifodalamagani uchun maydon markazidan o‘rin olmaydi. Lekin “qat’iy” semasi oshkor ekanligi hisobiga uni semantik maydon markazidan keyingi birinchi qurshovga joylashtirish mumkin.

Ravishlar semantikasida ham “qat’iyat” ma’noli leksemalar uchraydi: *uzil-kesil, qat’iyan*. “Qat’iyat” semantikasi ayrim fe’llarning ma’nolaridan o‘rin olgan bo‘lib, bu semantika yasovchi asosning ma’nosi bilan shakllangan: *qat’iylashmoq, qaror qilmoq, ahdlashmoq, jazmlanmoq, talab qilmoq.*

Oraliq so‘zlar hisoblangan modal so‘zlarda qat’iyat ma’nosining aks etishi o‘ziga xosdir. Modal so‘zlardan *albatta, shart, so‘zsiz, shubhasiz, shaksiz, kerak, zarur, lozim* kabi so‘zlardagi “qat’iyat” nutqda so‘zlovchining qat’iy strategiyasini ko‘rsatadi.

2.2. paragraf *“Qat’iyat” konseptining frazemalar orqali ifodalanishi”* deb nomlanadi. Sh.Rahmatullayevning “O‘zbek tili frazemalarining izohli lug‘atida” “qat’iyat” konsepti aks etgan frazemalarning ko‘pchiligini nutq bilan bog‘liq birliklar tashkil etishi ma’lum bo‘ldi: *aytgani aytgan, degani degan; bir so‘zi ikkita bo‘lmadi; bir so‘zini ikkita qilmaslik; gapida turmoq; so‘zida turmoq; lafzida turmoq; so‘zida qattiq turmoq; so‘z bermoq; so‘zini ikki qilmaslik; turgan gap; gapini ustidan chiqmoq; gapni uddasidan chiqmoq* kabi.

So‘zida turmoq, gapida turmoq frazemalariga “O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati”da “ahdini saqlamoq” izohi berilgan[15]. Darhaqiqat, fikrlar, prinsiplar, ahdlar so‘z orqali, gap orqali verbal ifoda etiladiki, aytilgan, verballashgan fikrdan og‘maslik qat’iyatni ifoda etadi. *So‘zida turmoq, gapida turmoq* frazemalari tarkibidagi *turmoq* so‘zi “muayyan makonda o‘z joyini o‘zgartirmasdan harakatsiz, qo‘zg‘almasdan joy egallamoq” ma’nosi bilan ishtirok etib, *gap, so‘z* kabi leksemalar bilan birga frazeologik konstruksiyalarda “aytgan so‘zini, gapini o‘zgartirmasdan qat’iy turish” frazeologik ma’nosini beradi.

Qat’iyatni ifodalovchi frazemalar orasida “ikki” komponentli konstruksiyalar ham ko‘p uchraydi: *ikki dunyoda ham; ikki oyog‘ini tirab olmoq; ikki oyog‘ini bir etikka tiqmoq; bir so‘zi ikkita bo‘lmadi; bir so‘zini ikkita qilmaslik; gapini ikkita qilmaslik, so‘zini ikki qilmaslik.* Bu kabi frazemalarda bitta fikrda qat’iy turish, ikkinchi fikrga o‘tib ketmaslik holati ilgari surilgan.

Ikki dunyoda ham frazemasi “hech qachon” degan ma’noni anglatadi. Bir qaraganda, bu frazeologik ma’no tarkibida “qat’iyat” semasi mavjud emasdek.

[15] Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1980. – Б. 218.

Lekin ushbu frazemada kontekstdan anglashilgan holat hech qachon amalga oshmasligiga qat’iy ishonch mavjud.

Ikki oyog‘ini tirab olmoq; ikki oyog‘ini bir etikka tiqmoq frazemalarida qat’iyat obrazli o‘ziga xos ifoda qilinadi. *Ikki oyog‘ini tirab olmoq* frazemasida makondagi o‘rnini o‘zgartirmaslik frazemaning obrazli ma’nosi bo‘lsa, o‘z fikrini o‘zgartirmaslik uning ko‘chma ma’nosidir. Bu frazema orqali so‘zida, fikrida qat’iy turish qiyin bo‘layotganligi, uning qat’iyatiga salbiy ta’sir qiluvchi kuchlar mavjudligi, shunday bo‘lsa-da, bor kuchi bilan o‘z prinsiplarini saqlashga harakat qilishi anglanadi: *Ammo soqoli ko‘ksiga tushgan, ikki lunji filning qulog‘iga o‘xshab osilgan bir chol eshikni ochasan, kirib karnayimni ko‘raman, deb ikki oyog‘ini bir etikka tiqib turib oldi* (S.Ahmad, Karnay).

O‘zbek tilida *otimni boshqa qo‘yaman, otimni boshqa qo‘ying* kabi frazemalar mavjud bo‘lib, bu frazemalar biror ish bajarishga qasd qilinganlikni, aytilgan fikrga nisbatan qat’iy ishonchni bildiradi, ma’lum darajada qasam ichish bilan teng. Bu kabi frazemalar shart ergash gapli konstruksiyalarda qo‘llanadi: *Boshlagan ishimni oxiriga olib bormasam, otimni boshqa qo‘yaman!* (Oydin).

Shunga o‘xshash frazema ingliz tilida “yemoq” fe’li ishtirokida mavjud ekan: “*I’ll eat my boots*” (men botinkamni yeyman), *I’ll eat my hat* (man shlyapamni yeyman). Mazkur frazemalarda qat’iyat shu darajada kuchliki, u yeyish mumkin bo‘lmagan narsalarni yeyish mas’uliyati bilan qat’iyatni ifodalamoqda. Bu frazemalarning shakllanishida oksyumoron amalda bo‘lgan. Zero, bir-biri bilan ma’noviy bog‘lanishi mumkin bo‘lmagan so‘zlar matn imkoniyatidan kelib chiqib bog‘lanmoqda.

2.3. paragraf “*Qat’iyat” konseptining paremeologik birliklarda ifodalanishining lingvomadaniy xususiyatlari”* deb ataladi. Maqollarda xalqning tajribasi, o‘gitlari, shodligi, alamlari, yashash tarzi, madaniyati, dunyoqarashi aks etadi. “Qat’iyat” konseptini ifodalovchi o‘zbek xalq maqollari bevosita va bilvosita qat’iyatni ifodalovchi maqollarga ajratildi. Qat’iyatni bevosita ifodalovchi maqollarga “lafz” komponentli: *Odamga lafz, gusalaga dum;* “sabot” komponentli: *Salobatli bo‘lguncha sabotli bo‘l* kabi maqollarni misol qilish mumkin.

“Qat’iyat” konseptining maqollarda aks etishida, avvalo, “aytgan so‘zidan qaytmaslik”, “o‘z va’dasidagi barqarorlik” kabi semalar voqelanadi. “Qat’iyat” konseptining “aytgan so‘zidan qaytmaslik” semantikasi o‘zbek xalq maqollarida “yigit”, “er” tushunchalari bilan assotsiatsiyalar hosil qilib, bu xususiyat yigitlar, erkaklarning asosiy fazilati ekanligi ta’kidlanadi: *Yigit so‘zi – bitta; Yigit – so‘zidan, Qo‘y – bo‘g‘zidan; Yigitni bir so‘zlik bezar; Suxan dur bo‘lar, Aslning gapi bir bo‘lar.* Bu kabi maqollarda yigit kishining birso‘zliligi, so‘zidan qaytmasligi, aytgan so‘zida sobitligi uning asosiy fazilati ekanligi namoyon bo‘ladi. O‘zbek xalqida yigitlarning ori, nomusi qadimdan ularning aytgan so‘zida sobitligi, qat’iy turishi bilan aniqlangan. Bu konseptual qarash xalqimizning qadim tarixi, madaniyati bilan bog‘liq bo‘lib, yurt, vatan, oila,

ayol himoyasi doim er kishining zimmasida ekanligi, bu mas'uliyat esa ulardan qat'iyatni talab qilishini ko‘rsatadi.

Yechingan suvdan qaytmas, kezangan yovdan qaytmas maqolida ham o‘zbek xalqiga xos bo‘lgan so‘zidan, fikridan va jang maydonidan qaytmaslik prinsiplari obrazli va sodda ifoda qilinadi. Maqolning birinchi qismida cho‘milish uchun suv yoqasiga borgan kishining albatta cho‘milishi, cho‘milmasdan qaytmasligi aniq haqiqat ekanligi e'tirof etilgan holda, xuddi shu kabi yovga qarshi borayotganlar ham jangdan qaytmasligi kerakligi mohirona o‘xshatilgan.

So‘zidan qaytish xalqimizda juda tuban holat sifatida baholanadi: *Tupurilgan tupuk qaytib og‘izga olinmas.* Mana shunday tasvirlar orqali bu jirkanch ishdan qaytarilgan, so‘ziga qat'iy turish fazilati qo‘llab quvvatlangan.

Qat'iyat aks etgan o‘zbek maqollarini tahlili shuni ko‘rsatadiki, qat'iyatlilik bilan mardlik assotsiatsiyalangan. O‘z so‘zidan, o‘z qat'iyatidan, ahdidan qaytmaslik xalqda mardlik deb sanalgan. *Mard aytmas, Aytsa qaytmas; Noligan – nomard, Bir gapirgan – mard; Va'daga vafo – mardning ishi, Va'dasiz – subutsiz kishi.* Bu kabi maqollarda so‘zidan qaytmaslik, va'dasida qat'iy turish kabi ma'nolar mardlikni ifodalashi ko‘rsatilgan.

O‘zbek maqollarida "qat'iyat" konseptining ifodalash uchun xalqimiz turli assotsiatsiyalar, metaforik ko‘chimlardan foydalangan. Shunday metaforik ko‘chimlardan biri yigit – arslon o‘xshatishidir: *Arslon izidan, yigit so‘zidan qaytmaydi.* Ushbu metaforik qo‘llashda til egalari yigitlarning qat'iyatini arslonga o‘xshatmoqda. O‘xshatishlarda o‘xshatilayotgan etalonning faqat bittagina belgisini boshqa nomuhim belgilaridan abstraksiyalab olinadi. Demak, o‘zbek xalqi arslonning yovvoyi, yirtqich kabi sifatlarini e'tibordan soqit qilib, faqatgina uning o‘lja va makon uchun oxirigacha kurashish belgisini etalon qilib olgan.

Maqollarda ma'noviy ziddiyat kuchli namoyon bo‘ladi. *Arslonning o‘ligi sichqonning tirigi* va *Arslon qarisa, sichqon inini poylaydi* maqollari bir-biriga qarama-qarshi mazmunni, farqli hayotiy tajriba va hayot falsafasini tashimoqda. Har ikki maqolda ham arslon va sichqon obrazlari mavjud va ular bir-biriga nisbatan nutqiy antonim maqomida. Birinchi maqolning tuzilishiga e'tibor qaratsak, *arslon* va *sichqon, o‘lik* va *tirik* leksemalari ziddiyatga qo‘yilmoqda.

Maqollarda xalqning uzoq hayotiy tajribalari, hikmatlari lo‘nda ifodalanar ekan, juda yirik hajmli mazmunni kichik ifodaga jamlash uchun kuchli ta'sir vositalari, mahoratli badiiy ko‘chimlar amalda bo‘ladi. O‘rganilayotgan semantikali maqollarda metonimiya, metafora, qarshilantirish, ironiya, oksyumoron, mubolag‘a kabi badiiy tasvir vositalari ancha faolligi kuzatildi.

"O‘zbek tilida "qat'iyat" konseptining nutqiy voqelanishi" deb nomlangan uchinchi bob ham uch paragrafdan iborat. *"O‘zbek tilida "qat'iyat" semantikali o‘xshatishlar tahlili"* deb nomlangan 3.1 paragrafda mazkur semantikaning o‘xshatish konstruksiyalari orqali obrazli ifodalanishi o‘rganildi. Qat'iyat konseptini verballashtiruvchi o‘xshatishlar ko‘proq kognitiv vazifa bajaradi. Bu kabi abstrakt tushunchalarni ifodalovchi o‘xshatishlarni til egalari go‘zal ifoda

uchungina qo‘llamaydi. Inson tafakkuri anglanishi qiyin bo‘lgan mohiyatlarni, jumladan, bevosita kuzatishda berilmagan mohiyatlarni bilishda metafora va o‘xshatishlardan unumli foydalanadi. Qat’iyat ham abstrakt tushuncha va uning anglanishi ko‘rish, ushlash, hidlash, ta’mini bilish va eshitish mumkin bo‘lgan narsalardan ancha murakkab. Shu jarayonda tafakkur uni konkret narsaga o‘xshatadi va bizda uning “yasama” obrazi shakllanadi.

Metaforalar kabi o‘xshatishlarda ham abstrakt tushunchalar konkret tushunchalarga o‘xshatiladi, natijada bilish oson kechadi. Masalan, “insonning fikrida, so‘zida, tanlagan yo‘lida qattiq turadigan, turli zarbalarga uchraganda tanlagan yo‘lidan, so‘zidan, fikridan qaytmaydigan” xarakteri temirga o‘xshatiladi. Bilamizki, temir mustahkam modda. Uni egish-bukish oson emas. Tafakkur ushbu insonga xos bo‘lgan xarakterni temirga o‘xshatadi va “bukilmaslik, o‘zgarmaslik, qattiqlik” belgilari asosida bilish oson kechadi.

Qat’iyatni ifodalovchi o‘xshatishlarni tahlil qilar ekanmiz, o‘xshatish etalonlari sifatida *temir, metin, po‘lat* kabi qattiq modda nomlari va keskir bo‘lgan *qilich* so‘zi keladi. E’tibor qilinsa, bu o‘rinda qat’iyat konseptidagi “o‘zgarmaslik”, “fikrida qattiq turish” mustahkam bo‘lgan moddalarning qattiqlik xususiyatiga o‘xshatilmoqda.

Po‘lat temirning uglerod va boshqa moddalar bilan qotishmasi sanaladi. U ham mustahkam bo‘lib, toblangan sari uning mustahkamligi oshib boraveradi. Xuddi shuning uchun ham u ikkilamchi nominatsiyaga asos bo‘lgan: *po‘latdek iroda*. Butun yer yuzida juda katta o‘ziga xosliklarga ega bo‘lgan – Temir davri bo‘lganligini tarixdan bilamiz. Shuning uchun ham turli tillarda temir va po‘lat nomlari bilan qat’iyatni ifodalash an’anasi kuzatiladi: *temirday iroda, железная волья, (temirday iroda), iron will (temirday iroda); po‘latdek matonat, стальная волья (po‘latdek iroda), steel will (po‘latdek iroda).*

Metindek matonat, metindek iroda, metindek bardosh kabi qat’iyat semantikasiga ega o‘xshatishlar uchun “mustahkam” semantika asos bo‘lgan. *Qilichdek keskir* o‘xshatishida qilichning bir zumda kesib yuborish imkoniyati o‘xshatishga asos qilingan. Kesuvchi predmetlardan pichoq, arra, o‘roq kabilar bizning kundalik turmush tarzimizda doim qo‘llanadi. Lekin qat’iyat uchun hozir keng qo‘llanishda bo‘lmagan *qilich* so‘zi olingan. Bunda qat’iyatli odamning uzil-kesil masalani hal qilishi, birso‘zli ekanligi qilichning o‘tkir ekanligiga, bir zumda tekis kesish imkoniyatiga o‘xshatilgan. Yana bu o‘xshatish ancha qadimgi ekanligini ham anglash mumkinki, *qilich* so‘zi so‘nggi asrlarda faol leksikaga mansub emas.

Demak, qat’iyat konsepti o‘zbek tili egalarida egish, o‘zgartirish mumkin bo‘lmagan “mustahkam”, “qattiq” kabi belgilarga ega bo‘lgan moddalar, predmetlar bilan assotsiatsiyalangan, qiyoslangan.

3.2. paragraf **“Rasmiy uslubda qat’iyatning ifodalanishi”** deb nomlanadi. Rasmiy uslubning ham og‘zaki, ham yozma shakli bo‘lib, og‘zaki shaklda qat’iyat odatda saylovoldi kompaniyalarda, prezidentlar, yuqori lavozimdagi rahbarlarning nutqida kuzatiladi. Prezident, shifokorlar, harbiylar qasamyodida ham qat’iyat kuchli aks etadi. Qat’iyat yorqin aks etgan nutq prezident qasamyodidir:

“O‘zbekiston xalqiga sadoqat bilan xizmat qilishga, respublikaning Konstitutsiyasi va qonunlariga qat’iy rioya etishga, fuqarolarning huquqlari va erkinliklariga kafolat berishga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti zimmasiga yuklatilgan vazifalarni vijdonan bajarishga tantanali qasamyod qilaman”.

Matndagi har bir so‘z, jumla qat’iyatni ifodalashga xizmat qilgan. Jumladan, *qasamyod qilaman, kafolat beraman* jumlalari, *sadoqat* leksemasi yanada qat’iyat semantikasini kuchaytirgan. Mazkur qasamyoddagi qat’iylik nafaqat verbal vositalar bilan, balki ekstralingvistik omillar hisobiga ham kuchli ifoda qilinadi. Prezident qo‘lini Qur’oni Karim va O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga qo‘yishi; ko‘p sonli aholining va jahon hamjamiyatining kuzatuvi, kirishilayotgan vazifaning ulkan va mas’uliyatli ekanligi, onlayn tasvirlarning ta’siri kabi ekstralingvistik hamda qo‘l harakati, yuzning jiddiy ifodasi va ohangning qat’iyligi kabi paralingvistik vositalar ham qat’iyatni ifodalashga xizmat qiladi.

